

BIZNES REJA

2026-YIL UCHUN



“Maqsadimiz O‘zbekiston xalqi va tadbirkorlarini moliyaviy maqsadlariga erishishida qo‘llab-quvvatlovchi yetakchi bank bo‘lish”

Mundarija

Muqaddima.....	5
2026-moliyaviy yil uchun bozor prognozi	8
2026-moliyaviy yil uchun maqsadlar.....	11
Ilovalar	15

Muqaddima

O'zbekiston bank bozori so'nggi yillarda jadal o'sish va chuqur transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Raqobat kuchayishi banklarni texnologik yetakchilik uchun faol kurashishga, yangi mahsulot va xizmatlarni tezlashtirib ishlab chiqishga undamoqda. Kredit bozori barqaror o'sishni namoyon etmoqda, bunda asosiy drayver chakana segmenti bo'lib qolmoqda. Mahsulotlarning ommabopligi onlayn rasmiylashtirishning qulayligi va tezkorligi, shuningdek, mijozlar daromadiga nisbatan minimal talablar bilan bog'liq.

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari natijasida aholi omonatlardan samarali jamg'arma vositasi sifatida tobora faol foydalanmoqda. Chakana savdo aylanmasida naqd pulsiz to'lovlar ulushi 50% ga yaqinlashib, barqaror o'sish sur'atini saqlab qolmoqda. Umuman, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliya-bank islohotlari bank sektorining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga muhim turtki bo'lmoqda.

Kelgusi yillarda O'zbekiston bank bozori uchun o'sish salohiyati juda yuqori baholanmoqda. Bunga quyidagilar asos bo'lmoqda:

- aholi soni va YIMning barqaror o'sishi;
- bank sektorini xususiylashtirish, kreditlashni kengaytirish, uy-joy va avtokreditlashni yanada qulaylashtirish bo'yicha davlat siyosati;
- bank xizmatlarining yuqori darajada raqamlashtirilgani hamda "open banking" tamoyillarining joriy etilishi.

"Xalq banki" zamonaviy va raqamli bank xizmatlarini taqdim etish maqsadida keng ko'lamli transformatsiya dasturini izchil amalga oshirmoqda. Bank strategiyasiga muvofiq raqamli biznes-modelga o'tish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, aktivlar sifatini oshirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar bajarildi. Jumladan:

- barcha filiallar "Yagona MFO" tizimiga to'liq o'tkazilib, bek-ofis funksiyalari markazlashtirildi;
- kassa tarmoqlari markazlashtirildi;
- "Xazna" mobil ilovasi muvaffaqiyatli ishga tushirildi.

Bugungi kunda Xalq banki respublikadagi eng keng tarmoqqa ega banklardan biri hisoblanadi: 228 ta bank xizmatlari markazi, 396 ta sayyor kassa, 227 ta xalqaro pul o'tkazma punktlari, 236 ta valyuta ayirboshlash shoxobchasi, 11 ta bankdan tashqari kassa va 3 000 dan ortiq bankomat orqali aholi va tadbirkorlarga uzluksiz xizmat ko'rsatmoqda. bank chakana biznes yo'nalishi orqali respublika aholisining qariyb uchdan bir qismiga (13,8 mln nafar mijoz) xizmat ko'rsatadi, shundan 13,5 mln nafari jismoniy shaxslar, 124,9 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar, 128,3 ming nafari yuridik shaxslardir.

Xalq banki pensiya va nafaqa to'lovlarini tarqatish, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisoblarini yuritish bo'yicha asosiy agent bank sifatida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarida faol ishtirok etib, bir vaqtning o'zida tijoriy mahsulotlar bo'yicha ham yetakchi o'rinni saqlab kelmoqda. Xususan, ipoteka kreditlari, ta'lim kreditlari, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan inklyuziv mahsulotlar bo'yicha bozor yetakchilaridan biridir.



1-rasm. AT Xalq banki bank xizmatlari markazlari soni va joylashuvi.

Keyingi yillarda Xalq banki atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga rioya qilish bo'yicha faoliyatini yanada kengaytiradi va sifatni oshiradi. Bankda ESG tamoyillariga rioya qilish siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu hujjat faoliyatning barcha yo'nalishlarida ESG me'yorlarini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutadi. Bank kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatini to'la anglab, jamiyat va atrof-muhit uchun foydali, samarali va inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirishga faol hissa qo'shmoqda. Xususan, 2026-yilda Bank energetik ehtiyojlarini qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha o'z mablag'laridan viloyatlarda binolariga qo'shimcha 33,4 ming m² quyosh panellarini o'rnatishni rejalashtirmoqda.

“Xalq banki” o'zining asosiy strategik maqsadi – “O'zbekiston xalqi va tadbirkorlarini moliyaviy maqsadlariga erishishda qo'llab-quvvatlovchi yetakchi universal bank bo'lish” tamoyilidan kelib chiqib, mijozlar uchun qulaylik yaratish, biznes-jarayonlarni optimallashtirish va xizmatlarni chuqur raqamlashtirish yo'nalishlarida izchil va faol ish olib bormoqda.

Raqamli transformatsiya bank faoliyatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qisqa muddat ichida ishga tushirilgan “Xazna” mobil ilovasi respublikada eng ommabop va faol foydalaniladigan bank ilovalaridan biriga aylandi. 2025-yilning 10 oyi davomida erishilgan natijalar buni yaqqol tasdiqlaydi:

- onlayn ochilgan omonatlar soni 39 mingga yaqinlashdi;
- Xazna mijozlar soni hajmi o'tgan yilga nisbatan 1,8 barobar o'sib, 5,5 mln dan oshdi;
- ilova orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar soni 180 mln. dan oshdi va hajmi bo'yicha bank respublikada yetakchilar orasida joy egalladi.

Ushbu ko'rsatkichlar bankning to'g'ri tanlangan strategiyasi, samarali risk-menejmenti va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvining aniq natijasidir. Shu tariqa, Xalq banki 2026-yilda ham o'z mijozlari – aholi, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik

shaxslar uchun eng qulay, tezkor va ishonchli moliyaviy sherik bo'lib qolishni, shu bilan birga, respublikaning eng yirik raqamli banki sifatida pozitsiyasini yanada mustahkamlashni rejalashtirmoqda.

2025-yilda "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi O'zbekiston iqtisodiyoti va moliya tizimining ijobiy dinamikasini yuqori baholab, mamlakatning suveren kredit reytingini "BB-" dan "BB" ga ko'tardi va prognozini "Barqaror" deb belgiladi. Xalq banki ham "Fitch Ratings" tomonidan o'z kredit reytingini "BB-/Barqaror" darajasidan "BB/Barqaror"ga ko'tarishga erishdi. Bu natija bankning kapitalizatsiyasini mustahkamlash, operatsion samaradorlikni oshirish va davlatning ijtimoiy siyosatida asosiy rol o'ynashi bilan bog'liq. Ushbu muvaffaqiyat nafaqat mamlakat iqtisodiyoti uchun, balki butun bank sektori, shu jumladan, Xalq banki uchun katta imkoniyatlar ochmoqda, chunki suveren reyting banklarning individual reytinglariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi va xalqaro moliyalashtirishni osonlashtiradi.

Xalq banki reyting ko'rsatkichlarini yanada mustahkamlash uchun quyidagi strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratishni davom ettiradi:

- Kredit portfeli sifatini oshirish va diversifikatsiya qilish, shu jumladan, inklyuziv loyihalarni moliyalashtirish ulushini kengaytirish;
- Korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, ESG tamoyillarini chuqurroq integratsiya qilish;
- Daromadlilikni oshirish orqali kapital bazasini yanada mustahkamlash va likvidlikni oshirish orqali xalqaro standartlarga to'liq moslashish;
- Muntazam audit va monitoring orqali shaffoflikni ta'minlash, bu esa keyingi reyting o'sishi uchun poydevor yaratadi.

Ushbu yondashuv nafaqat bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi, investorlar uchun jozibadorlikni kuchaytiradi va mijozlar uchun ishonchli sherik sifatida obro'sini yanada yuksaltiradi. Xalq banki O'zbekistonning barqaror rivojlanishida faol ishtirok etib, xalqaro reytinglar orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini global miqyosda namoyon etishga hissa qo'shmoqda.

Bankning 2026-moliyaviy yil biznes-rejasi keyingi yillarga mo'ljallangan strategiyasiga mos bo'lib, rentabellik, moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilashga, raqamli mahsulotlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bank asosiy ko'rsatkichlarining Respublika bank tizimidagi ulushi va o'rni (01.11.2025-yil holatiga)

	ulushi	o'rni
Aktivlar	5,9%	7
Kredit portfeli	5,4%	7
Depozit portfeli	7%	4
Kapital	7,8%	4

1-jadval

1

2026-moliyaviy yil uchun bozor prognozi


O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"ga ko'ra¹, mamlakat iqtisodiyoti 2026-yilda barqaror o'sish sur'atlarini saqlab, YIM o'sishi 5,5-6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu prognoz xalqaro moliya institutlari – Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki (JB) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tomonidan e'lon qilingan bashoratlarga mos keladi, bunda XVJ² va JB³ 6 foiz, OTB esa 6,7 foiz⁴ darajasini ko'zda tutmoqda. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning so'nggi yillardagi islohotlari – xususiylashtirish, raqamlashtirish va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha sa'y-harakatlarining ijobiy natijasi sifatida baholanmoqda.

Ushbu ijobiy tendensiyalar O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasida eng tez o'sayotgan iqtisodiyotlar qatorida saqlab qoladi, chunki tez rivojlanayotgan Qozog'iston o'sish sur'ati 4–5 foiz atrofida prognoz qilinmoqda. Biroq, global xatarlar, energiya narxlarining o'zgaruvchanligi va geosiyosiy ziddiyatlar o'sishni 5,5 foizgacha pasaytirishi mumkin, shuning uchun hukumat diversifikatsiya va risk-menejmentga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xalq banki ushbu makroiqtisodiy prognozlardan kelib chiqib, 2026-yilda kreditlashni 21 foizga kengaytirishni rejalashtirmoqda, shu jumladan, kichik biznes va yashil loyihalarga yo'naltirilgan mahsulotlar orqali iqtisodiy o'sishga faol hissa qo'shadi. Bu nafaqat bank faoliyatini mustahkamlaydi, balki mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga ham mos keladi.

O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulot summasi va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atini prognozi¹

1-grafik



¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028 yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlar konseptual loyihasi: <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/publications/press-releases/2950143/>

² IMF World Economic Outlook: <https://www.imf.org/en/-/media/files/publications/weo/2025/october/english/text.pdf>

³ World Bank Jobs and Prosperity: <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/9b18a520-9e9a-4e71-af8d-cf04b499fa18/content>

⁴ Economic forecasts for Uzbekistan: <https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/economy>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 24-oktabrdagi boshqaruv yig'ilishida ma'qullangan "Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"ning konseptual loyihasi asosiy ssenariysiga ko'ra, 2026-yil oxiriga qadar umumiy inflyatsiya darajasi 7 foiz atrofida shakllanishi, 2027-yilda inflyatsiya 5 foizlik target darajasigacha pasayishi va 2028-yildan ushbu daraja atrofida shakllanishi kutilmoqda. Ushbu prognoz Markaziy bankning o'rta muddatli makroiqtisodiy modellari asoslangan bo'lib, ichki va tashqi sharoitlarning joriy ijobiy sur'atlarda rivojlanishini nazarda tutadi. Xususan, global inflyatsiyaning pasayib borishi, jahon iqtisodiyoti o'sish sur'atlarining barqarorligi, global YIM 3,2 foizda shakllanishi, xalqaro bozorlarda oltin va xomashyo (neft, gaz, metallar) narxlarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi¹.

Asosiy ssenariy bo'yicha pul-kredit siyosatining asosiy tendensiyalari quyidagicha belgilangan:

- Foiz stavkalarini pasaytirish davrining davom etishi: Markaziy bank asosiy stavkani (joriy 14 foiz) bosqichma-bosqich yumshatish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirishni rejalashtirmoqda, bu esa kreditlash sur'atlarini oshirishga va investitsiyalarni jalb etishga yordam beradi;

- Oltinsiz eksport hajmining barqaror o'sishi: Tashqi talabning kuchayishi hisobiga eksport tushumlari 17-18 foizga oshishi kutilmoqda, bu milliy valyuta kursining barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- Pul o'tkazmalarining dinamikasi: Migratsiya oqimlarining diversifikatsiyasi (yuqori daromadli davlatlarga) hisobiga yillik 17-18 foizga oshishi kutilmoqda;

- Ish haqi indeksatsiyasi: Budget tashkilotlarida ish haqlarini inflyatsiya darajasiga mos ravishda oshirish orqali aholi daromadlarini himoya qilish va iste'mol talabini barqaror saqlash;

- Kreditlash sur'atlarining muvozanatlashuvi: Aholiga ajratiladigan kreditlar o'sishi inflyatsion bosimdan oshib ketmasligi uchun Markaziy bank makroiqtisodiy cheklovlar (masalan, kredit o'sish sur'atiga nisbatan zaxira me'yorlari) joriy etadi.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari va jahon narxlarining qulay konyunkturasining (oltin narxi yuqori saqlanishi) eksport tushumlari va pul o'tkazmalari hajmlarining oshishiga olib kelishi kutilmoqda. Ushbu tendensiyalar milliy valyuta (so'm) almashinuv kursining barqarorlashishiga, bank tizimining likvidligini yaxshilashga va xorijiy valyuta zaxiralarini oshirishga hissa qo'shadi. Bank tizimining umumiy likvidligi, jamg'armalar va kreditlar hajmi dinamikasi nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda, bu esa aholining so'mdagi jamg'arishlarini jozibador qiladi va omonatlar hajmini yanada kengaytiradi.

2025-2026 yillarda bank tizimi likvidligining prognozi joriy profitsit (ortiqcha likvidlik) holatining saqlanib qolishini ta'kidlamogda. Omillar kesimida, Markaziy bankning qimmatbaho metallar (asosan, oltin) xaridlari oltin narxining joriy yuqori saqlanib qolishi sharti va oltin qazib chiqarish hajmining bosqichma-bosqich oshib borishi bo'yicha kutilmalari hisobiga likvidlikka sezilarli oshiruvchi ta'sir ko'rsatishi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, pul o'tkazmalari va eksport tushumlarining o'sishi xorijiy valyuta inflyatsiyasini kamaytiradi va banklarning likvidlik ko'rsatkichlarini (LCR – likvidlikni qoplash me'yori

koeffitsiyenti 150 foizdan yuqori) mustahkamlaydi. Ushbu prognozlar Xalq banki va boshqa banklar uchun muhim imkoniyatlar ochmoqda: kreditlashni kengaytirish, omonat bazasini mustahkamlash, loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga faol hissa qo'shish.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha kutilmalar⁵

2-jadval

	2024 haqiqatda	2025 kutilma	2026 kutilma
Yillik inflyatsiya darajasi	9.8%	8%	6-7%
YIMning real o'sishi	6.5%	6.2%	6.1%
Sanoat ishlab chiqarishning o'sishi	6.8%	6.1%	6.3%
Qishloq xo'jaligi sektorining o'sishi	3.1%	4.1%	4.2%
Bozor xizmatlarining o'sishi	12.9%	15.4%	13.6%

Jadvalda ko'rsatilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar – yillik inflyatsiya, real YIM o'sishi – respublikaning kelgusi yillardagi iqtisodiy rivojlanish dinamikasini belgilamoqda. 2024-yilda yillik inflyatsiya darajasi 9.8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 8 foizga yaqinlashishi kutilmoqda. Real YIM o'sishi 2024-yildagi 6.5 foizdan keyin, 2025-yilda 6.2, va 2026-yilda 6.1 foiz prognoz qilinmoqda. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va aholi xarid qobiliyatining mo'tadil o'sishini ifodalaydi. Yuqori investitsion faollik va ishlab chiqarish sur'atlari yil oxiriga qadar saqlanishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2026-yilda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun hukumatning fiskal siyosati va Markaziy bankning pul-kredit choralarini hisobga olgan holda, Xalq banki o'z faoliyatini yanada moslashuvchanligini ta'minlashni rejalashtirmoqda. Bu nafaqat bankning daromadlilikini oshiradi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy tiklanishiga ham faol hissa qo'shadi, xususan, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, 2026-yil Xalq banki uchun nafaqat o'sish, balki sifat jihatidan yangi bosqich – diversifikatsiya va raqamli transformatsiya yili bo'lib qoladi.

5 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi 2026-2028 yillar uchun Fiskal Strategiya:

https://api.mf.uz/media/filestore/fiskal_strategiya_2026-2028_.pdf

2 2026-moliyaviy yil uchun maqsadlar

Ushbu biznes-reja bankning strategik yo'nalishlari asosida, avvalgi yillar davomida erishilgan natijalarning mantiqiy davomi sifatida ishlab chiqildi. 2026-moliyaviy yil uchun asosiy balans ko'rsatkichlari, moliyaviy natijalar prognozi hamda kelgusi yil xarajatlari bo'yicha batafsil ma'lumotlar ilovalarda taqdim etilgan.


2026-yilga asosiy maqsadlar quyidagilarni davom ettirishdan iborat:

- Bank aktivlari sifatini yaxshilab borish;
- Tijoriy operatsiyalar ulushini oshirishda davom etish;
- Bankning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror o'sish darajasini ta'minlash;
- Masofaviy xizmatlar ko'lamini oshirish, yangi onlayn mahsulotlarni taqdim etib borish;
- Kichik biznes kreditlari va moliyaviy inklyuziv xizmatlar hajmini oshirish, chakana biznes o'sishini qo'llab borish.

2023–2025-yillar davomida bank tomonidan muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish maqsadida, bank strategiyasi doirasida keng qamrovli choralar kompleksi amalga oshirildi. Xususan, NPL bilan ishlash bo'yicha maxsus tuzilmalar tashkil etilib, Soft va "Hard collection" xizmatlarining samarali faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, NPL dinamikasini onlayn monitoring qilish uchun hisobotlar avtomatlashtirildi. Tashkil etilgan "Soft-collection" xizmati yangi muammoli kreditlarning oldini olish va kredit qarzдорliklarni undirish jarayonining samaradorligini oshirishda yuqori natijalar ko'rsatmoqda. Bankda olib borilgan samarali harakatlar natijasida 2025-yilda NPL 3.4% ga tushishi kutilmoqda (2024-yil yakunlari bo'yicha 4.2%), 2026-yilda ushbu ko'rsatkich 3.2% gacha kamayishi rejalashtirilmoqda.

2023-2025-yillarda muammoli kreditlar dinamikasi

2-grafik



Kelgusi yillarda bank o'z oldiga raqamli bank xizmatlari ko'lamini yanada oshirib "Xazna" mobil ilovasi mijozlari sonini o'sishini davom ettirish, "Xazna Business"ni tadbirkorlar uchun birinchi raqamli platformaga aylantirish, sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy prognozlash, scoring, anti-frod, va boshqa mahsulotlarni ishga tushirish, eskrou bo'yicha birinchi raqamli banklar orasiga kirish va boshqa vazifalarni rejalashtirgan.

2026-moliyaviy yilda Xalq banki o'zining strategiyasiga muvofiq, endi nafaqat an'anaviy tijorat banki, balki mamlakatning yirik raqamli moliyaviy ekotizimini yaratuvchilardan biri sifatida ish olib borishni rejalashtirgan va quyidagi ko'plab maqsadlarni belgilagan:

- 2026-yilda "Xazna" mobil ilovasi foydalanuvchilari sonini oshirishni rejalashtirilmoqda. Bunga erishish uchun keng ko'lamli marketing kampaniyasi, do'stni taklif qilish dasturlari, keshbek va sodiqlik tizimlarini yanada jozibador qilish choralari ko'riladi.
- Kelgusi yillarda "Xazna SuperApp" dasturi doirasida bir qator mini ilovalarni "Xazna" ilovasida yo'lga qo'yish va takomillashtirishni amalga oshirish rejalashtirilgan.
- E-commerce billing platformasida hamkor merchantlar oshirish, kommunal xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm kabi sohalarga maxsus dasturlar ishlab chiqish, mijoz va merchant ikki tomonlama rag'batlantirish tizimini joriy etish rejalashtirilgan.
- "Xazna Business" platformasining imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro to'lovlar holatini real vaqtda kuzatish, depozit konstruktorini yaratish, daqiqalarda masofadan hisobraqam ochish, sun'iy intellekt maslahatchisi yordamida moliyaviy holatni tahlil qilish.
- Sun'iy intellekt mahsulotlarini ishlab chiqish. Bankning Aloqa-markazida sun'iy intellekt orqali so'rovlarga javob berish, keyinchalik sotuvlarni ham joriy qilib borish;
- Protsessing markazi Mastercard elektron kommersiyasi bo'yicha to'liq sertifikatsiyadan o'tib, multivalyuta kartalarini chiqarishni rejalashtirgan. Bu nafaqat ichki, balki xalqaro bozorda ham bankning raqobatbardoshligini oshiradi.

2026-yilda Xalq banki chakana kreditlashni to'liq raqamli va mijoz uchun eng qulay segmentga aylantirish rejalashtirilgan va quyidagi maqsadlar qo'yilgan:

- Ipoteka kreditlari bo'yicha onlayn mahsulotlar ishlab chiqish, Escrou tizimini joriy etish hamda agent banking orqali sotuvlar sonini oshirish rejalashtirilgan.
- Mikroqarzlarda pre-scoring va CVM tizimlari ishga tushib, kredit ajratilish soni oshiriladi. BNPL yo'nalishi kengayib, onlayn merchantlarda ham, POS-terminallarda ham "hozir ol – keyin to'la" imkoniyatini joriy qilish rejalashtirilgan.
- Kredit kartalar bozoriga bank o'zining kredit kartasini (imtiyozli davrli) chiqaradi va filiallar hamda agentlar orqali 500 ming donagacha yetkazishni reja qilgan. Ta'lim kreditlari 100% "Xazna" ilovasiga o'tkaziladi, avtokreditlar esa dilerlar bilan komission model va onlayn ajratish orqali jadal o'sadi.

Natijada, 2026-yilda chakana kredit portfeli o'sishi, muammoli kreditlar darajasi kamayishi va chakana biznes bankning asosiy daromad manbaidan biriga aylanishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2026-yilda Xalq banki depozitlar, xalqaro pul o'tkazmalari, to'lovlar va kartalar bo'yicha ham mijoz uchun eng qulay hamda eng daromadli mahsulotlarni taklif

qiladi. Depozitlar yo'nalishida bank xizmatlari markazlarida Face ID orqali tezkor identifikatsiya joriy etiladi, shuningdek, yangi "Oltin depozit" – qiymati oltin narxiga bog'langan investitsion depozit mahsuloti ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha "Xazna" ilovasiga yangi tizimlar bilan hamkorlik qilinishi, mijozlar segmentatsiyasi asosida shaxsiy valyuta ayirboshlash kurslari joriy etilishi, pul sanash mashinalarini avtomatlashtirilgan tizimiga to'liq ulash va natijada kassa jarayonlarini qisqartirish rejalashtirilgan.

Xalq banki va Avstriyaning "Raiffeisen Bank International" banki o'rtasida "custodian" hisob raqam ochilishi bo'yicha shartnoma imzolaniib, "custody"⁶ hisobraqam ochildi. Mazkur hisobraqam orqali 70,5 mln AQSh dollari miqdoridagi yevrobondlar sotib olindi. Ushbu amaliyotni davom ettirgan holda kelgusi yilda mahalliy qimmatli qog'ozlar bozorida xalqaro investorlarga "custodian" xizmatlarni joriy etish rejalashtirilgan.

To'lovlar va kartalar yo'nalishida HUMO bankomatlarida kommunal va boshqa to'lovlarni naqd pulsiz qabul qilish yo'lga qo'yiladi. "Xazna" ilovasida karta buyurtmasi, kredit karta chiqarish, ATTO bilan integratsiya (jarimalar va yo'l haqi to'lovi) ishga tushiriladi. VISA Platinum, premium va biznes kartalar, shuningdek, UZCARD yoshlar kartasi chiqarilishi rejalashtirilgan. Bankomatlar migratsiyasi yakunlanib, HUMO va UZCARD bilan H2H to'g'ridan to'g'ri integratsiyasini boshlaydi. Natijada, 2026-yilda jismoniy shaxslar depozit portfeli, xalqaro pul o'tkazmalari va karta tranzaksiyalari hajmining o'sishi kutilmoqda. Bu bankning chakana daromadini yanada diversifikatsiya qilib, sof foydaga qo'shimcha o'sish beradi.

Kichik va o'rta biznes yo'nalishida bank yangi avlod skoring modelini ishga tushirib, kredit qarorlarini tez chiqaradigan mexanizmini joriy qilishni rejalashtirmoqda. Yangi platforma orqali korporativ mijozlar bankka kelmasdan kredit, lizing, faktoring va kafolatlarni onlayn olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, Islomiy moliya tamoyillari asosidagi mahsulotlar (murabaha, mudoraba, ijarah) qonunchilik kuchga kirishiga mos ravishda ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda, bir tarmoqdagi korxonalar (umumiy ovqatlanish, mehmonxona, savdo) ga maxsus paketli xizmatlar taklif qilinib, ularning barcha moliyaviy oqimi bank orqali o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Natijada, 2026-yilda kichik va o'rta biznes kredit portfeli o'sishi, ushbu segmentdagi mijozlar soni ortishi, savdoni moliyalashtirish va islomiy banking ulushi oshishi kutilmoqda. Korporativ menejerlar soni ham ko'paytiriladi. Shu tariqa, Xalq banki nafaqat chakana, balki kichik va o'rta biznes segmentida ham respublikada o'z o'rniga ega bo'ladi.

Mazkur biznes-reja ilovalarida balans ko'rsatkichlari (1-ilova), daromad va xarajatlar (2-ilova), operatsion (3-ilova) va kapital xarajatlar (4-ilova) bo'yicha 2026-yil uchun rejalar keltirilgan. Ilovada ko'rsatilgan jami operatsion xarajatlarni 10 foizdan oshmagan holda 3-ilovada belgilangan ko'rsatkichlarga o'zgartirishlar kiritish va qayta taqsimlash hamda jami kapital xarajatlardan oshmagan holda 4-ilovada belgilangan ko'rsatkichlarga o'zgartirishlar kiritish va qayta taqsimlash bank boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi.

2026-moliyaviy yilda bankning moliyaviy yo'nalishdagi asosiy e'tibori samaradorlikni oshirish va qaror qabul qilish sifatini tubdan yaxshilashga qaratiladi. Ushbu davrda transfert narxlarini belgilash (FTP) loyihasini to'liq yakunlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

⁶ "Custody" hisobraqam – bank tashkilotida investorning qimmatli qog'ozlari va aktivlarini saqlaydigan, himoya qilish uchun bankning o'z aktivlaridan ajratilgan holda yuritiluvchi hisobvaraqlar. Bank sotib olish, sotish va saqlash kabi faoliyatni boshqaradigan saqlovchi vazifasini bajaradi, hisob egasi esa faoliyatni nazorat qiladi yoki ularning nomidan menejer ishlaydi.

Shu bilan birga, bankning hisobot berish jarayonlari tubdan modernizatsiya qilinadi, avtomatlashgan boshqaruv hisobotlarini shakllantirish, regulyatorlik hisobotlari kabi ko'p sonli muhim hisobotlarni to'liq avtomatlashtirish rejalashtirilgan.

Moliyaviy mahsulotlarning aniq narxini belgilash tizimini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Bu, mahsulot kataloglari, xarajatlarni taqsimlash (allokatsiya) va narxlarni shakllantirish ustidagi ishlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Bank o'zining strategik rivojlanishiga mos ravishda, belgilangan maqsadlarga erishish uchun keyingi yil budjetining asosiy parametrlari va ko'rsatkichlarini quyidagicha belgilab olgan:

2026-yil byudjetining asosiy ko'rsatkichlari

3-jadval

	2026 yil reja, mlrd so'm		2026 yil reja, %
Aktivlar	62 746	ROE	6.9%
Kreditlar	40 277	ROA	1.3%
Majburiyatlar	51 510	NIM	6.7%
Kapital	11 236	CIR	-57%
Operatsion daromad	4 532	CAR (min 13%)	19,2%
Sof foyda	748	LCR (min 100%)	195,5%

Asosiy korsatkichlar

Ilovalar

1-ilova

2026-moliyaviy yil balans ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2026 reja mlrd so'm
AKTIVLAR	
Naqd pullar	2 103
Banklardagi mablag'lar	5 654
Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar	12 192
Kreditlar (netto)	40 024
Kreditlar (brutto) va foizlar	42 488
Zaxiralar	-2 464
Asosiy vositalar va boshqa mulklar	2 527
Boshqa aktivlar	245
Jami aktivlar	62 746
MAJBURIYATLAR	
Bank kartalari va depozitlar	23 116
Banklararo mablag'lar	1 456
Kredit liniyalari	14 363
JBPTT mablag'lari	9 987
Boshqa majburiyatlar	2 588
Jami majburiyatlar	51 510
JAMI KAPITAL	11 236

2-ilova

2026-moliyaviy yil uchun daromad va xarajatlar ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2026 reja mlrd so'm
Kreditlar	6 318
Banklardagi mablag'lar	517
Qimmatli qog'ozlar *	1 801
Jami foizli daromadlar	8 637
Depozitlar	-2 271
JBPTT mablag'lari	-1 569
Kredit liniyalari	-1 237
Banklar mablag'lari	-76
Qimmatli qog'ozlar	-9
Subordinar qarz	-3
Jami foizli xarajatlar	-5 167
Komissiyalar	681
Valyuta kursi farqidan	75
Boshqalar	306
Jami sof foizsiz daromadlar	1 062
Operatsion daromad	4 532
Operatsion xarajatlar	-2 596
Zaxiralar, sof	-1 187
Sof foyda	748

* shu jumladan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizsiz daromadlar

3-ilova


2026-moliyaviy yil uchun operatsion xarajatlar

Operatsion xarajatlar	2026 reja mlrd so'm
Xodimlar ish haqisi va boshqa xarajatlari	-1 596
Ijara, kommunal, ta'minot va qo'riqlash	-261
Ma'muriy xarajatlar	-205
Xayriyalar va homiylik	-51
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi	-211
Soliqlar (foyda solig'isiz)	-60
Boshqa operatsion xarajatlar	-213
Jami operatsion xarajatlar	-2 596

4-ilova

2026-moliyaviy yil uchun kapital xarajatlar

	2026 reja mlrd so'm
AKT va uskunalar	75
Filiallar tarmoqlarini yangilash (mebel jihozlari, kameralar va boshqalar)	30
AKT texnik vositalari (kompyuter va kompyuter jihozlari, AKT jihozlari va boshqalar)	30
Sun'iy intellekt infratuzilmasi	15
Dasturiy ta'minot va litsenziyalar	149
Loyihalar (CRM, Islamic banking, "Xazna" va boshqalar)	58
Boshqa dasturiy ta'minot (Xavfsizlik, KO'B va boshqalar)	48
AKT dasturiy ta'minoti	31
Protsessing	12
Bank kartalari va bankomatlar uskunalari	126
ATM, ADM va kassa uskunalari	97
POS terminallar	25
Karta printer moduli va jihozlari	4
Qurilish	191
Avtotransport vositalari	19
Jami kapital xarajatlar	560



AT Xalq Banki

www.xb.uz

info@xb.uz

Ijtimoiy tarmoqlarda

@xalqbankinfo

☎ 1106

+99871 210-20-02

